

Kuz manzarasi



Kuz – eng chiroyli fasllardan biri. Tabiat yorqin sariq, to‘q qizil va olovrang tusga kiradi. Bugungi darsda manzara nimaligini bilib olasiz va kuz tabiatini tasvirlashga urinib ko‘rasiz.

Manzara – tabiat tasvirlangan kartina. Tabiatni tasvirlaydigan rassomlarni **manzarachi rassomlar** deymiz.



Isaak Levitan. “Oltin kuz”

Isaak Levitan (1860–1900) – rus tasviriy san’atining buyuk ustasi. U go‘zal tabiat manzaralari tasvirlangan kartinalari bilan mashhur. Chizgan suratlari yorug‘lik va osoyishtalikka to‘la. Ular kishini tabiat va atrofimizdagi olam go‘zalligi haqida fikr yuritishga undaydi.



Rangli bo‘r yoki **qalamlardan** foydalangan holda tabiat go‘zalligi va iliq kuz fasli kayfiyatini tasvirlang.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Birin-ketin **ikkita tepalik konturini** chizing va ularni yashil rangga bo'yang.
2. Tepaliklar ustiga **daraxtlarning oval shaklidagi** shox-butoqlarini chizing. Kuzning qizil, sariq, olovrang, yashil, to'q sariq kabi yoqimli ranglaridan foydalaning.
3. **Daraxt tanasiga** malla rang bering.
4. Daraxtlar ostiga soya, osmonda qush kabi **detallarni** qo'shing.



1



2



3



4

